

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



**Journal of Preschool  
Education**

*The faculty of pre-school  
education*

## INGILIZ TILINI O'RGANISHIDA IJODIY VAZIFALARNING AHAMIYATI

532 -20-guruh talabalar Berdiyeva Laylo

Nematova Xushnuda

JDPU talabalari

**Annotatsiya:** Bu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ingliz tilini o'rganishda ijodiy vazifalarning ahamiyati haqida so'z yuritilgan va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga turli xil ijodiy o'yinlardan foydalanish orqali bolalarning ziyrakligini, tezkorligini oshirish hamda yangi so'zlarni esda saqlab qolish haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ijodiy o'yinlar, bola , maktabgacha ta'lim, ziyraklik, topqirlik, o'yin, nutq, multimedia, didaktik o'yinlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida tub o'zgarishlar olib borilmoqda, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiya olishi masalasi davlat darajasidagi dolzarb masalaga aylandi. Bu borada Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar dastur amal bo'lib kelmoqda. Shu asnoda mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda chet tillarini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Bunga misol qilib, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda 2013-2014-o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi buning isbotidir. Hozirgi kunda nafaqat maktab, litsey va oliy o'quv yurtlari talabalariga, balki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va turli sohada ishlovchi xodimlarga ham chet tilini, xususan ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Buning sababi, iqtisodiy, fan va madaniy jihatdan rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omili hisoblanadi.

Bolalarni ijodiy qobiliyatlarini va faoliyatlarini rivojlantirishda turli xil metod va usullaridan foydalanamiz. Bu haqida angliyalik olim Djon Lokk quyidagicha fikr bildirgan: "Dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini

«top-toza paxtaga» o'xshatadi. Uning fikricha, bolaning «top-toza paxta» tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo'lib yetishishi, ya'ni unda qanday shaxsiy fazilatlarining tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o'zgalar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir''. Bolalarga e'tibor bilan ularni qiziqishlarini aniqlovchi testlar, rasmi testlar xar xil savollar bilan aniqlab olishimiz zarur. Har bir bola bilan gaplashib qiziqishlarini aniqlab bo'lgach ularga mos qo'shiqlar, o'yinlar, diqqatni jalb qiluvchi qiziqarli va rangli, multik qahramonlardan iborat tarqatma materiallar bilan darsni boshlashimiz kerak. Birinchi navbatda bolalar bilan salomlashamiz va mavzuyimizni tushuntirishimizdan oldin mavzuyimizga oid bolalar bilan kichik suhbatlar olib borishimiz ularni fikrini eshitishimiz, mavzuyimizga oid qo'shiqlar va o'yinlar bilan boshlashimiz lozim. Chunki bolalarda mavzuga oid tushuncha paydo qilib va darsni tushunishlari oson va qiziqarli bo'ladi. Sekin astalik bilan qiziqarli tarqatmalarimizni tarqatib olishimiz kerak, misol uchun: bolalarni sevimli rangi yoki yoqtrgan multik qahramonlarini so'rab berishimiz ham mumkin. Tarqatma materiallarni tarqatib bo'lgach ularni ko'rib nimalarni tasavur qilishganini so'rab sekin mavzuni tushuntiramiz. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishimizda biz yana multifilm va multimedialardan keng foydalanamiz. • Multifilmlar ingliz tilida - ingliz tilini o'qitishda eng yaxshi yordamchilardan biri. Bolalar multafilmlarni yaxshi ko'radilar va ularni ketma-ket tomosha qilishdan zavqlanadilar. Shuning uchun ingliz tilidagi multafilmlar bir vaqtning o'zida bolalarga chet tilini o'rgatishning ko'plab muammolarini hal qilishga yordam beradi. Multifilmlar -bolalarning til o'rganish mobaynida multifilmidagi gaplarni tushunmasada, multifilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'llardan biri hisoblanadi. Yana bir bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda biz ovozli ertaklardan ham foydalanamiz. Ovozli ertak jarayonida bolalar o'qituvchi bilan birgalikda rasmlarni ko'rib chiqishadi va shu bilan birga so'zlarni talaffuz qilishadi. Ingliz audio ertaklarini tinglashni yanada qiziqarli qilishimiz uchun biz ertak terapiyasining usullaridan biri - ertak chizishidan foydalanishimiz mumkin. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishimiz kerak. Chunonchi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bemalol gaplasha olgan hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm- fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo'lgan. Shunday qilib , Navoiy bobomiz aytganlaridek, «Til bilgan - el biladi» degan fikrlari ham yodimizdan chiqarmasligimiz kerak. Ingliz va rus tilini o'rgatish jarayonida bir

qator qiziqarli o'yinlar mavjud. Shuni aytib o'tishimiz kerakli, bolalarga til o'rgatishda shunday o'yinlardan foydalanish kerakki, unda barcha o'quvchilar birdek ishtirok etishi hamda darsadan yangilik olishi (masalan yangi lug'atlar yodlab ketishi, har kuni shu jarayon takrorlansa, o'quvchining lug'at boyligi yuqori darajaga ko'tariladi). O'quvchilarga darsni grammmatik tushunchalar bilan boshlash noo'rindir, ayniqsa kichik sinf o'quvchilarini tezda zerikishiga sabab bo'ladi. Natijada dasrga bo'lgan qiziqish so'nishi mumkin .Ular bilan hattoki salomlashish jarayonini ham noan'anaviy tarzda boshlash kerak, masalan, o'qituvchi kirishi bilan darsni qandaydir salomlashishga oid inglizcha qo'shiq bilan boshlash usuli samarali usuldir. Shu tariqa dars davom etsa, o'quvchilar dars davomida ha bir topshiriqqa bo'lgan e'tiborini yo'qotishmaydi. Xattoki ular ingliz tili darslarini intizorlik bilan kutishadigan bo'lishadi. Biz bolalarni zeriktirib quymasligimiz uchun turli xil metod va o'yinlardan foydalanishimiz kerak.

Tennis o'yini - bu o'yinning maqsadi o'quvchilarning tezligini oshirishdir. Bu o'yin zanjir o'yiniga o'xshaydi va tanlangan mavzu doirasida bo'lib o'tadi. Bunda aytilgan so'zning so'nggi harfiga yangi so'z aytishi kerak, masalan mavzu nomi „Animals” bo'lsa, mavzudan chetlashmagan holda „Tiger” so'zi bilan boshlansa, ikkinchi ishtirokchi „rabbit”deb davom ettiradi. Shu tariqa o'yin davom etadi. O'yin davomida to'xtab qolgan o'quvchi 5 daqiqa davomida javob bera olmasa o'yindan chetlashtiriladi va qolgan o'quvchilar bilan davom ettiriladi. O'yinni sinf bilan ya'ni ko'pchilik bilan o'ynash juda qiziqarli va maroqli bo'ladi. Bu o'yinni mavzuni o'zgartirish orqali ham o'ynash mumkin. Shu bilan birga, o'yinlarni tashkil etish jarayonida, ularni turli texnik vositalar bilan bog'lab o'tish ham qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Chunki bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan zamonda barcha yoshlar, o'smirlar va kattalar ham zamonaviy texnologiyalarga befarq emas. Shunday ekan, qiziqarli fan o'yinlari kompyuterlarda tashkil qilinishi orqali samarali natijaga erishish mumkin .

Xulosa qilib aytganda, o'yinlardan foydalanishda ularni bolalarning bilimiga va yoshiga qarab o'zgartirishimiz, ya'ni osonlashtirish yoki murakkablashtirishimiz mumkin. Ushbu yuqorida keltirilgan o'yinlarning maqsadi o'quvchilarning xotirasini kuchaytirish, aqliy salohiyatini oshirish, tezkorlik, ziyraklik, yangi so'zlarni oson esda saqlash va eng asosiysi darsni mazmunli tashkil qilishdir. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiyalari bilan ta'lim berishning ilg'or uslublarni joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni shu o'rganayotgan tillarining mutaxasisi bulishi va buning negzida ular shu tillarda bemalol so'zlash olishlari maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jalolov J.J. Chet til oqitish metodikasi. T.: Oqituvchi, 2016 y.
2. Saydaliev S.S. Chet tillarini oqitish metodikasidan ocherklar. Namangan: NamDU, 2018 y.
3. Xoshimoe UD., Yokubov I Ya. Ingliz tilini oqitish metodikasi. T.: Sharq, 2017y.
4. Mirziyoev Sh.M. 2017-2021-yillarda maktabgacha talim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisidagi qarori. T.: - 2016Y. 29-dekabr.